



UDK: 63.3(2)7

*Shahodat ZAYNIDDINOVA,*

*Toshkent shahar Olmazor tumani IIO FMB huzuridagi Tergov bo'limi katta tergovchisi*

*Qarshi Davlat universiteti ilmiy xodimi*

*E-mail: shahodat.zayniddinova@gmail.com*

*ORCID: 0009-0007-5985-3525*

*NamDTU dotsenti B.Nabiyev taqrizi asosida*

#### SOVET HOKIMIYATI VA BUXORO AMIRLIGI: AG'DARILISH VA BOSHQARUV TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada 1917-1924-yillarda Turkiston o'lkasida, shuningdek 1920-yildan boshlab Buxoro va Xiva hududlarida sovet hokimiyati tomonidan aksilinqilobchilikka qarshi kurash bahonasida yaratilgan davlat qatag'on mexanizmi hamda uning faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet hukumatining favqulodda hokimiyat organlari VCHK, GPU, OGPU, NKVD, inqilobiy tribunallar va boshqa kuch ishlatuvchi idoralarning tashkil etilishi va ularning milliy davlatchilik g'oyasi uchun kurashgan mahalliy kuchlarga qarshi olib borgan repressiv siyosati yoritiladi. Shuningdek, jadidchilik harakatining Turkiston, Buxoro va Xiva hududlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri, "Yosh buxoroliklar" harakati faoliyati hamda ularning siyosiy maqsadlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Turkiston, Buxoro Respublikasi, Xiva Respublikasi, bolsheviklar, sovet hokimiyati, qatag'on siyosati, VCHK, GPU, OGPU, NKVD, inqilobiy tribunal, jadidchilik harakati, Yosh buxoroliklar, milliy muxolifat, sinfiy kurash.

#### SOVIET POWER AND THE BUKHARA EMIRATE: OVERTHROW AND GOVERNANCE TRANSFORMATION

Annotation

This article analyzes the state repressive mechanism created by the Soviet authorities under the pretext of combating counterrevolution in Turkestan during 1917-1924, as well as in the territories of Bukhara and Khiva from 1920 onward, and examines its activities. The study explores the establishment of extraordinary bodies of Soviet power - such as the Cheka (VChK), GPU, OGPU, NKVD, revolutionary tribunals, and other coercive institutions - and their repressive policies directed against local forces striving for national statehood. The paper also examines the influence of the Jadid movement on socio-political processes in Turkestan, Bukhara, and Khiva, as well as the activities of the "Young Bukharians" movement and their political objectives.

**Keywords:** Turkestan, Bukhara Republic, Khiva Republic, Bolsheviks, Soviet power, repressive policy, Cheka (VChK), GPU, OGPU, NKVD, revolutionary tribunal, Jadid movement, Young Bukharians, national opposition, class struggle.

#### СОВЕТСКАЯ ВЛАСТЬ И БУХАРСКИЙ ЭМИРАТ: СВЕРЖЕНИЕ И ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация

В данной статье анализируется государственный репрессивный механизм, созданный советской властью под предлогом борьбы с контрреволюцией в Туркестанском крае в 1917 - 1924 гг., а также на территориях Бухары и Хивы с 1920 года, и рассматривается его деятельность. В исследовании освещается создание чрезвычайных органов советской власти - ВЧК, ГПУ, ОГПУ, НКВД, революционных трибуналов и других силовых структур, а также их репрессивная политика, направленная против местных сил, выступавших за национальную государственность. Кроме того, анализируется влияние джадидского движения на общественно-политические процессы в Туркестане, Бухаре и Хиве, деятельность движения «Молодые бухарцы» и их политические цели.

**Ключевые слова:** Туркестан, Бухарская республика, Хивинская республика, большевики, советская власть, репрессивная политика, ВЧК, ГПУ, ОГПУ, НКВД, революционный трибунал, джадидское движение, Молодые бухарцы, национальная оппозиция, классовая борьба.

**Kirish.** 1917-1924-yillarda Turkistonda, 1920-yildan Xiva va Buxoroda bolsheviklar aksilinqilobchilikka qarshi kurash olib borgan davlat qatag'on mexanizmi yaratildi. Mintaqada bolsheviklar hukmronligi milliy respublikalarda milliy davlatchilik g'oyasi uchun kurashni tubdan bostirish asosida tuzilgan Sovet hukumatining favqulodda hokimiyat organlari - Tergov komissiyasi, Favqulodda komissiya - VCHK, Inqilobiy tribunal, "uchlik", GPU va OGPU, NKVD, Oliy inqilobiy harbiy tribunal, Diktatura komissiyasi, "Favqulodda uchlik", Harbiy tribunal kabi organlarning tashkil etilishiga olib keldi. 1920-1924-yillarda O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan Buxoro va Xorazm respublikalarida ham bolsheviklar hokimiyatiga qarshi vujudga kelgan milliy muxolifat harakati va tashkilotlariga, partiya va sovet milliy rahbar xodimlariga nisbatan ham yuqoridagi kabi kuch ishlatuvchi idoralar yordamida sovet hokimiyati o'zining

mudhish qatag'on siyosati va amaliyotini qo'lladi. Bu yillarda "sinfiy kurash" niqobi ostida Buxoro va Xorazm respublikalarda mahalliy aholi vakillariga qarshi qo'llanilgan qatag'on siyosati, bu siyosatni bevosita ijrochisi bo'lgan sovet hokimiyatining favqulodda kuch ishlatish idoralari tarixini har tomonlama xolisona o'rganish bugungi globallashgan davrning talabidir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** 1917-yilda yuz bergan fevral inqilobi natijasida yuz bergan o'zgarishlar Rossiya imperiyaning yarim mustamlaka vassallari hisoblangan Buxoro amirligida ham o'zining aks - sadosini bermay qolmadi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda o'zgarishlarning sodir bo'lishi jadidchilik harakatiga ham ta'sir qildi. Har ikki davlatda o'sib borayotgan xalq kurashining mafkuraviy asosini ham jadidchilik harakati tashkil etdi. Bu davrga kelib ular ochiq siyosiy kurash

maydoniga chiqib, xon va amir hokimiyatiga muxolifatda bo'ldi.

Hududiy jihatdan yagona bo'lgan O'rta Osiyoda jadidchilik harakati bir vaqtda paydo bo'lgan bo'lsa-da, o'z oldiga qo'ygan kurash maqsadlari jihatidan ikki xil yo'nalish kasb etgan. Jumladan, Turkiston jadidlari o'z oldilariga bosh maqsad qilib Turkiston o'lkasini Rossiya mustamlakachilaridan ozod qilish va milliy mustaqil davlat tuzishni qo'ygan bo'lsalar, Buxoro va Xiva jadidlari hokimi mutloq, o'z monarxlarini bo'lgan amir va xon zulmiga qarshi kurashni bosh maqsad deb belgiladi.

Buxoro xalqlari mustamlakachilik zulmini o'z boshidan to'liq kechirmadilar. Chunki Rossiya yarim mustamlaka, qaram bo'lsa-da, Buxoro o'z ichki mustaqilligini saqlab qolgan edi. Bu yerda mahalliy boylar va amaldorlar zulmi kuchli edi. Ular amir va xon himoyasida turgan. Shu bilan birga, ko'p hollarda amir zulmi hammasidan ham oshib tushar edi. Mehnatkash xalqning arzdodini eshitadigan bir kimsa yo'q edi. Xalq ommasi hokimi mutloq monarx — amir o'rniga insofiroq va adolatliroq hukmdorga ega bo'lishni xohlar edi. Xalqning bu intilishi va qiziqishini Buxoro jadidlari idrok etdilar va uni yoqlab chiqdilar. Ular shu boisdan ham amirga qarshi qurashni bosh maqsad deb bildilar.

Turkiyada yuzaga kelgan "Yosh turklar" faoliyati Buxoro jadidlari faoliyati uchun namuna va o'lchov mezon bo'ldi. Shuning uchun ular "Yosh turklar"ga takdid etib o'zlarini "Yosh buxoroliklar" deb atay boshladilar. Yosh buxoroliklarning pirovard maqsadlari mavjud siyosiy tuzumi doirasida demokratik islohotlar o'tkazish yo'li bilan xonliklarning kapitalizm va ijtimoiy taraqqiyot yo'lida rivojlanishini ta'minlash, konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish orqali xon va amirning mutlaq hokimligini cheklab qo'yishning tarafdori bo'ldi.

Yosh buxoroliklar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi taqozosiga ko'ra xalq ommasi o'rtasida mustahkam tayanch bazaga ega emas edilar. Ular o'zlariga ittifoqchilarni chetdan izladilar va Rossiya timsolida amir va xon zulmidan ozod bo'lish mumkin, degan fikrga borib katta siyosiy xatoga yo'l qo'yidilar.

Buxoro amirligida ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat Xiva xonligidagiga o'xshash tarzda kechdi. Amirlik ham Rossiyaga tobe yarim mustamlaka sifatida vassal davlat edi. Ichki siyosatda mustaqil bo'lgan amirning mutlaq hokimiyati hukm surib, bundan oddiy xalq ommasi behad zulm tortib kelardi. XX asr boshlarida bu yerda ham amirlik tuzumiga qarshi demokratik harakatlar shakllana boshladi. Bu davrda Buxoroda jadidchilik harakati va zimdan o'sib chiqqan yosh buxoroliklar partiyasining faoliyati kuchaydi. Yosh buxoroliklar harakati 1908-yilda tuzilgan "Tarbiyai atfol" maxfiy jamiyati asosida 1910-yildan boshlab tashkiliy tus olib partiya aylangan edi. Abdulvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Sadriddin Ayniy, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (Usmon Xo'ja), Otaulla Xo'jayev va boshqalar yosh buxoroliklarning dastlabki tashkilotchilari edi. Keyinchalik uning faoliyatida Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va Muhiddin Mansurov katta rol o'ynashdi. Ular boshida mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlar o'tkazish, konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish orqali amirning mutlaq hokimligini cheklab qo'yish tarafdori bo'lgan.

1917-yil fevral inqilobi yosh buxoroliklar ichida kuchlar nisbatining qayta guruhlanishini tezlashtirdi. Asta – sekin isloh qilish tarafdorlari bo'lgan jadidlarga Abdulvohid Burhonov, islohot sohasida faol harakatlarni qo'llovchi, nisbatan oz sonli yosh jadidlarga Fitrat yetakchilik qildi. Yosh buxoroliklar Petrograddagi Muvaqqat hukumatga amirlikda demokratik islohotlar o'tkazishni so'rab, 2 marta telegramma yubordi, Fitrat va U.Po'latxo'jayev Petrogradga jo'natildi. Ular Rossiyadan maxsus komissiya kelayotgani sababli Orenburgdan Buxoroga qaytishdi. Rossiyaning Buxorodagi

regenti A.Y.Miller Buxoroda U.Po'latxo'jayev, A.Burhonov va boshqalar bilan uchrashib, yosh buxoroliklar talablari bilan tanishdi.

Ular yangi usul maktablari ochish, matbuotga erkinlik berish, xalq hukumati tuzish talablarini ilgari surdi. Muhokamalardan so'ng A.Y.Miller va uning yordamchisi Shulga tomonidan amirlikda o'tkaziladigan islohotlar loyihasi ishlab chiqildi. Buxoro amiri Sayd Olimxon bu manifest matnini ayrim tuzatishlar bilan farmoni oliy tarzida 1917-yil 7-aprelda e'lon qildi.

Manifestda qo'yidagi talablar va'da qilingan:

1. Nufuzli kishilardan iborat Majlis tashkil qilish.
  2. Davlat xazinasini ta'xis etish va mamlakat byudjetini belgilash.
  3. Poytaxtda bosmaxona ochish.
  4. Sanoat va savdoni rivojlantirish.
  5. Soliqlarni tartibga solish.
  6. Amaldorlar ustidan nazorat o'rnatish.
  7. Maorif, tibbiyot, sud tizimlarini yaxshilash.
  8. Ma'muriy boshqarish ishlarini takomillashtirish [1]
- Natijalar va muhokama

Yosh buxoroliklarning Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va Usmon Xo'jayev boshchiligidagi so'l qanoti 8-aprelda amirning e'lon qilgan islohotlarni qo'llab – quvvatlash uchun Buxoro shahrida katta namoyish uyushtirdi. Bu manifestning e'lon qilinishi demokratik hamda konservativ kayfiyatdagi namoyishchilarning ko'chaga chiqishiga sabab bo'ldi. Demokratik Registonda miting o'tkazdi. Demokratik doiralar amir manifesti mamlakatda tinch yo'l bilan ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun dastlabki qadam, deb qaradilar. Shu kuni konservatorlar va mutaassib guruhlar esa Registonda to'planib islohotga, yangiliklarga qarshi jangarilik va murosasizlik kayfiyatlarini ko'rsatdilar. Ikki o'rtadagi munosabatlar keskinlashdi. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'qnashuvini oldini olish maqsadida demokratik namoyishchilar boshliqlari Registonga borish niyatidan qaytdilar, namoyishchilarni tarqalib ketishga da'vat qildilar. Bu tadbir oxirigacha yetkazilmagan bo'lsada, u Buxoro amirligi demokratik o'zgarishlar, islohotlar uchun yetilganligini yaqqol ko'rsatdi. 8-apreldi voqealarining yakuni shu bo'ldiki, hukumatda konservativ kuchlar yana ustunlikka erishdilar. Bu voqealardan so'ng amir qozikalon Sharifjon Mahdumni lavozimidan bo'shatdi, g'azablangan mutaassiblar rais Abdusamadxo'jani olomon qilib o'ldirdilar, qushbegi Nasrullobek buyrug'i bilan shoir S. Ayniy, yosh buxoroliklar Mirbobo, Mirzo Nazrullo 75 - 150 kaltak urib jazolandilar [2]. Islohotchilik harakatining bu bosqichi shunday noxush yukanlandi.

Amir Olimxon 1917-yil 14-aprelda o'z farmonini bekor qilib, yosh buxoroliklarni yoppasiga ta'qib eta boshladi. Ular amirning zulmidan qochib xorijga ketishga majbur bo'ldilar. Yosh buxoroliklar endi amir hokimiyatiga qarshi yashirin kurash yo'liga o'tdi [3].

Oktabr to'ntarishidan keyin sovet Rossiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Turkiston respublikasining bolsheviklardan iborat rahbariyati Buxoro amirligining davlat mustaqilligini rasmiy ravishda tan olishiga qaramay, amalda uning ichki ishlariga doimiy ravishda aralashib turdi. Xususan, 1918-yil martida "Kolesov voqeasi" nomi bilan tarixga kirgan qonli voqeasidan keyin bu munosabatlar o'ta yomonlashdi. F. Xo'jayev boshchiligidagi yosh buxorolik jadidlarning bir qismi, Buxoroda demokratik tartibotlarni o'rnatish uchun inqilobiy kurash yo'lini tanladi.

Ular amirlikni ag'darish uchun 1917-yilning dekabrda Turkiston XKS raisi F.I.Kolesov (1891-1940-yillar)dan harbiy yordam so'raydilar [4]. U harbiy yordam ko'rsatishga va'da berdi, lekin Buxoro amirligiga hujum qilishga shoshilmagan. Dastlab Turkiston Muxtoriyati xukumati tor – mor etilgach, bu ishga kirishdi.

Yosh buxoroliklarining markaziy qo'mitasi (1917-yil tuzilgan) hujumga tayyorlanib, F.Xo'jayev raisligida 7 kishilik Inqilobiy qo'mita tuzdi. 1918-yil 1-martda Yangi Buxoroga F. Kolesov boshchiligidagi 3500 kishilik kizil askarlar otryadi zambarak va pulemyotlar bilan kurollangan hollatda yetib keldi.

Kolesov bilan inqilobiy qo'mita a'zolari o'zaro maslahatlashib, amir Sayd Olimxon nomiga talabnoma matni tayyorlandi. Kolesov va F.Xo'jayev imzolari bilan Olimxonga jo'natilgan talabnoma javobidan qanoatlanmagan Kolesov harbiy harakatlarni boshlashga buyruq berdi. 2-martda Buxoroga hujum boshlandi. Harbiy harakatlar 1918-yil 25-martda sovet Turkistoni bilan Buxoro amirligi o'rtasida Qiziltepa bitimini imzolanishi bilan yakun topdi. Buxoro Rossiya vassalligidan chiqadi. 9 banddan iborat bitim shartiga ko'ra, mustaqilligini himoya qilgan Buxoro amirligi o'z xududidagi harbiy harakatlar uchun javobgar deb hisoblandi va tovon to'lashi lozimligi belgilandi. Amir o'z sarbozlari miqdorini 12000 kishidan oshirmaslik majburiyatini oldi. Qizil askarlar amirlik hududidan chaqirib olindi. F.Kolesovning Buxoroga qarshi harbiy xuruji barbod bo'lsa ham, Buxorodagi siyosiy tuzumni o'zgartirish uchun harakatlar to'xtamadi. Afsuski, Amir Olimxon mamlakat taqdiri hal qilinyotgan ushbu fursatda muhohifatdagi yosh buxoroliklar yo'qotish yo'lini tutdi.

U amirlik hududidagi 3 ming kishini jadidchilikda nohaq ayblab, ularni qatl qildirdi va mol – mulkini musodara ettirdi. Fayzulla Xo'jayev va Fitrat boshchiligidagi ko'plab yosh buxoroliklar mamlakatni tark etishga majbur bo'ldilar[5].

Muhajirlikning dastlabki davrida (1918-yil mart - iyun) F.Xo'jayev o'zining safdoshlarini ishga joylashtirish va moddiy jihatdan ta'minlash bilan faol shug'ullandi. Bu davrda sovet mutasaddilari Buxoroda sun'iy inqilob tayyorlash, buning uchun Turkistondan panoh topgan ko'p sonli buxorolik muhajirlarni ishga solish, ulardan ko'plab inqilobchi kuchlar yetishtirish va ularni tashkillashtirish harakatida bo'ldilar. Natijada yosh buxoroliklar harakati yanada tashkiliy tus oldi. Toshkentda 1918-yil aprel – may oylarida Usmon Xo'ja boshchiligidagi Yosh buxoroliklarning so'l eserlar guruhi tuzilgan [6].

1918-yil 16-noyabrda Moskvada "Yosh buxoroliklar" qo'mitasi Turkiston sovet hukumatining Muxtor Vakolatxonasi a'zolari bilan birgalikda kengash o'tkazdi. Unda F.Xo'jayev yozgan yosh buxoroliklar qo'mitasi

"Instruksiyasi"ning loyihasi tasdiqlandi. Bu hujjat "o'ta inqilobiy" ruhda yozilgan bo'lib, unda partiyaning maqsadi qurolli qo'zg'olon bilan amirni ag'darishdan iborat bo'lgan.

Bundan tashqari F.Xo'jayev "yosh buxoroliklar" firqasi Moskva byurosining "Xitobnoma"sini ham yozdi. Bu xujjatda o'zining "Sotsialistik inqilobga to'la sadoqati va ishonchini ko'rsatdi. Buxoro dehqonlari va sarboz (Askar)larini amirga qarshi kurashga, uning hokimiyatini ag'darishga da'vat etildi. Shu bois F.Xo'jayev Rossiya kompartiyasi va hukumati rahbarlarining hurmat va e'tiboriga sazovor bo'ldi. U 1920-yil yanvarida Rossiya hukumati va partiyasining Turkkomissiya a'zolari bilan birga Toshkentga keldi va Turkkomissiya yordamida amir hukumatini ag'darishga tayyorlandi. 1920-yil 15-aprelda F.Xo'jayev muxarrirligida "Uchqun" gazetasining birinchi soni chiqdi. Uning nomi ham. Asosiy shiori ham bolsheviklarning leninchi "Iskra" gazetasidan olingandi. "Shunday kun keladiki, o'shanda uchqun alanga oladi".

Gazetaning jami soni 5 ming nusxadan 8 ta soni chiqdi. Bu gazeta ham "Qutulish" kabi Toshkentda maxfiy ravishda bosilib Buxoroda tarqatildi [7].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 1920-yilda Buxoro amirligi va Xiva xonligida amalga oshirilgan harbiy to'ntarish bu mamlakatlar ichki ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonining tabiiy va zaruriy hodisasi bo'lmadi. U markaz va Toshkentda oldindan ishlab chiqilgan reja asosida sun'iy ravishda mavjud jamiyat taraqqiyotiga majburan kuch ishlatish yo'li bilan aralashish bo'ldi. Bu ishda bolsheviklarning qurolli kuchlar hal qiluvchi rol o'ynadi. O'rta Osiyo xonliklarida ro'y bergan bu to'ntarish bolshviklarning "jahon inqilobi" deb om olgan hayolli va noilmiy g'oyasini amalga oshirishdan iborat bo'ldi, bu maqsadga erishish uchun bolsheviklarrejimi suveren Xiva va Buxoroning "qo'zg'olon ko'targan xalqi"ga yordam ko'rsatish bahonasi bilan ularga qurolli bosqinchilik qilishdan ham tap tortmadilar.

Qizil armiya qismlari yordamida amalga oshirilgan to'ntarish oqibatida bu mamlakatlar ijtimoiy rivojlanishining tabiiy evolyutsion-jarayoni sun'iy ravishda uzib qo'yildi, dastlabki bosqichda xalq demokratik ko'rinishida bo'lgan sovet tuzumi bu mamlakatlar xalqlariga majburan tiqishtirildi. Garchi BXSr va XXSR avasbman suveren davlatlar bo'lsalar-da, haqiqatda esa ular avalboshdanoq Sovet davlatiga to'la-to'kis qaram bo'lib qolgan edilar.

#### ADABIYOTLAR

1. Shamsutdinov R., Karimov Sh. O'zbekiston tarixidan materiallar (Uchinchi kitob). –Andijon: Andijon nashriyot – matdaa, 2004. –B. 242
2. Medvedov V. Nechayannaya revolyutsiya.Drujba narodov. 1992, 2-son. –B. 145
3. Shamsutdinov R., Karimov Sh. O'zbekiston tarixidan materiallar (Uchinchi kitob). –Andijon: Andijon nashriyot – matdaa, 2004. –B. 249
4. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Birinchi kitob 1917-1939-yillar. –Toshkent: O'zbekiston, 2019. –B.100-101
5. Shamsutdinov R., Karimov Sh. O'zbekiston tarixidan materiallar (Uchinchi kitob). –Andijon: Andijon nashriyot – matdaa, 2004. –B. 247
6. Medvedov V. Nechayannaya revolyutsiya.Drujba narodov. 1992, 2-son. –B. 148
7. Rajabov Q. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash: tarix haqiqati (1920-1924). –Toshkent: Ma'naviyat, 2002. –B.9-10
8. Shamsutdinov R., Karimov Sh. O'zbekiston tarixidan materiallar (Uchinchi kitob). –Andijon: Andijon nashriyot – matdaa, 2004. –B. 252
9. Rajabov Q. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash: tarix haqiqati (1920-1924). –Toshkent: Ma'naviyat, 2002. –B.12